

**MAMLAKATIMIZDA SOLIQ MA’MURCHILIGIDA AXBOROT
TEXNOLOGIYALARING ZARURLIGI VA UNING ILMIY-NAZARIY
ASOSLARI TAHLILI**

Muxammadov Nodir Karimovich

Toshkent davlat iqtisodiyot

universitetining mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya:

Mazkur maqolada, coliq ma’muriyatichilagini raqamlashtirish asosida qonunchilikka rioya etish va ma’muriy xarajatlarni kamaytirish, ko’proq daromadlarni samaraliroq yig‘ish, shaffoflik va soliq to’lovchilarga xizmat ko’rsatishni yaxshilash nazarda tutilgan. Bugungi kunda soliq ma’muriyatichiliги doirasida soliqlar tuzilmasini optimallashtirish, ularni undirish, soliq hisobi va hisobotini yuritish mexanizmini takomillashtirish, soliq to’g‘ri hisoblanishi, o‘z vaqtida va to’liq to’lanishi, soliq to’lovchilarning soliq qonunchiligidagi belgilangan huquq va majburiyatlariga rioya etilishini nazorat qilish, soliq tushumlarini turli darajadagi byudjetlar o’rtasida taqsimlash, natijalarni yig‘ish va tahlil qilish, soliqqa tortish jarayonining barcha ishtirokchilarining soliq munosabatlarini uyg‘unlashtirish bo‘yicha tadqiqotlar olib borish nazarda tutilgan.

Kalit so‘zlar: byudjet siyosati, elektron hisobvaraq-fakturalar, soliq ma’murchiligi, tadbirkorlik sub’ektlari, soliq hisoboti, soliq tushumlari, soliq, interaktiv xizmat, samaradorlik, raqamli platforma, onlayn nazorat-kassa texnikasi, usullar va vositalar, ilg‘or axborot kommunikatsiya texnologiyalari, tahlil, optimallashtirish, veb-xizmatlar, zamonaviy texnikalari.

Kirish:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev, “moliya-xo‘jalik faoliyatini tekshirishga nisbatan e’lon qilingan moratoriyning muddati tugagani, lekin, bu yana eski usulda yoppasiga tekshir-tekshirlarni boshlab yuborish mumkin degani emasligi, 2020 yilning birinchi choragida, ilg‘or tajribalar asosida, barcha darajadagi nazorat qiluvchi idoralarda yangi zamonaviy intizim joriy etilishi shartligini qayd



Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies Hosted online from Moscow, Russia

Date: 11th February, 2023

ISSN: 2835-5733

Website: econferenceseries.com

etdilar.¹ Bugungi kunda xufiyona iqtisodiyotga qarshi kurash dunyoning ko‘plab mamlakatlarida dolzarb muammolardan biri sifatida saqlanib qolmoqda. Shu bilan bir qatorda, O‘zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotida ham xufiyona iqtisodiyotning ko‘lami yuqori darajada saqlanib qolmoqda. Bundan tashqari, xufiyona iqtisodiyot nafaqat iqtisodiy ijtimoiy tuzilmalar, jamiyatdagi iqtisodiy mynocabatlapni o‘z ichiga oluvchi murakkab ijtimoiy-iqtisodiy voqelik, balki, avvalo, jamiyat tomonidan nazorat qilib bo‘lmaydigan, mamlakat aholisining bir qismini tashkil qiluvchilarning shaxsiy va guruhiy manfaatlarini qondirish, ya’ni katta miqdorda qo‘sishimcha daromad (foyda) olishni ko‘zlab davlat organlari boshqaruvi va nazoratidan yashirgan holda, davlat va nodavlat mulkidan hamda iqtisodiy boylik, tadbirkorlik qobiliyatidan jinoiy yo‘l bilan foydalanishdir.

Tahlil va natijalar muhokamasi

Soliq xizmati organlarida soliq ob’ektlari va ularning tushumlari hamda soliq ishini tashkil etishning avtomatlashtirilgan (axborot texnologiyalarini qo‘llash) shakllarini yaratish va realizatsiya qilish. Soliq xizmati organlarida ish jarayonlarini, shuningdek, soliq ob’ektlari, tushumlari va soliq to‘lovchilarning holati va harakati to‘g‘risidagi ma’lumotlarning yagona axborot bazasini yaratish va unga zamonaviy axborot texnologiyalarni qo‘llash ishlari tashkil etiladi. O‘zbekiston soliq tizimida bu borada 30 dan ortiq maxsus dasturiy mahsullardan foydalaniladi.

Soliq qonunchiligining ta’minlanishi yuzasidan hamkorlik ishlarini tashkil etish. Soliq xizmati organlari soliq nazoratini amalga oshirish va boshqa usullar bilan soliq qonunchiligi buzilgan hollarda ushbu holatlarga huquqiy baho berishda o‘zlarining vakolatlaridan tashqari holatlar bo‘yicha huquq-tartibot organlariga tegishli tartibda murojaatlar qiladi va zaruriy hamkorlik ishlarini amalga oshiradi. Shuningdek, xo‘jalik sudlariga soliq qarzdorligini undirish, soliq to‘lovchini bankrot deb e’lon qilish, soliq to‘lovchining mol-mulkini xatlash va shu kabi yo‘nalishlar murojaatlar qilish ishlarini tashkil etadi.

Soliq to‘lovchilarga soliq xizmatlarini ko‘rsatish va ularning soliq madaniyatini oshirish borasidagi ishlarni amalga oshirish. Soliq xizmati organlari soliq to‘lovchilardan soliqlarni majburiy tartibda undirish ishlari bilan bir qatorda ularga soliq xizmatlarini ham ko‘rsatishga majbur hisoblanadi. Bunda ulardan soliq

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2020 йил 25 январдаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси. <https://president.uz/uz/lists/view/3324>(Address of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev to the Oliy Majlis in 2020 25 January)



Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies Hosted online from Moscow, Russia

Date: 11th February, 2023

ISSN: 2835-5733

Website: econferenceseries.com

hisobotlarini elektron tarzda qabul qilib olish, soliq qonunchiligidagi o'zgarishlarni ularga belgilangan tartibda yetkazish, soliq to'lovchilarning soliq va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha savollariga javob berishi, ularga maslahat ishlarini amalga oshiradi. Bundan tashqari, soliq to'lovchilarning madaniyatini oshirish bo'yicha turli xil tadbirlarni (tushuntirish, ko'rik tanlovlari o'tkazish, turli xil aksiyalar o'tkazish, ommaviy axborot vositalarida chiqish qilish, turli xil reklamalar berish va sh.k.) ham amalga oshirib boradi.

Soliq xizmati organlari o'zida qonunchilikka rioya qilinishini nazorat qilish. Bu jarayon ham soliq ma'murchiligining muhim qismi hisoblanadi. Soliq xizmati organlarining o'zlarida umumiylar qonunlarning bajarilishi, soliq to'lovchilar bilan o'zaro munosabatlarida qonunlarga rioya qilinish holatlari, ishonch telefonlariga qilingan murojaatlarning haqqoniyligi, soliq xizmati organlari xodimlari tomonidan soliq ob'ektlarini yashirish, soliq hisobotlarini noto'g'ri qabul qilish, soliq to'lovchilarning qonuniy murojaatlari javob bermaslik, soliq tekshiruvlarini o'tkazishda noxolislik qilinishi kabi holatlarning oldini olish va ular aniqlanganda tegishli tartibda choralar ko'rish ishlari ham amalga oshirilib boriladi.

Qayd etilganlardan ko'rindiki, soliq ma'murchiligi jarayoni o'ziga xos tarkibga va tuzilishga ega bo'lib, u turli-tuman faoliyatlarni (huquqiy, iqtisodiy, sotsial, madaniy) qamrab oladi. Soliq tizimining qanchalik samarali ishlashi ko'pincha soliq ma'murchiligining samarali tashkil etilishi va amalga oshirilishiga bog'liq bo'ladi. Ta'kidlash lozimki, soliq ma'murchiligining samaradorligi bugungi zamонавиу texnologiyalar rivojlangan sharoitda axborot texnologiyalariga uzviy bog'liqdir. Agar, soliq tizimida axborot texnologiyalarni qo'llash orqali soliplarni undirish jarayonini takomillashtirishga oid ilmiy nazariy qarashlarni tahlil qiladigan bo'lsak, buguni kunda xorijlik va vatanimiz ilmiq tadqiqotchilari va mutaxassislari tomonidan keng qamroqli ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Xulosa va takliflar

Teng raqobat muhitini yaratish va soliq to'lashdan bo'yin tov lash holatlarining oldini olish chora-tadbirlarini davom ettirish, shu jumladan soliq to'lamaslik xavfi yuqori bo'lgan soliq to'lovchilari uchun qo'shimcha cheklovlar o'rnatish tizimini joriy qilish. Tadbirkorlarga alohida mobil dasturiy mahsul yaratilib, boshqa davlat organlariga integratsiya qilish orqali ushbu dasturda tashuvchilar o'z faoliyatining qonunchilik talablariga muvofiqligini mustaqil ravishda tekshirish, agregatorlar dasturlarga ulanish, o'zini o'zi band shaxs sifatida ro'yxatdan o'tkazish imkonii



Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies Hosted online from Moscow, Russia

Date: 11th February, 2023

ISSN: 2835-5733

Website: econferenceseries.com

berish hamda xizmat ko'rsatish markazlariga onlayn nazorat-kassa texnikalariga xizmat ko'rsatish majburiyatini yuklash orqali tadbirkorliklar uchun qulaylik yaratish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Adabiyotlar/Literatura/Reference

1. Normurzaev U. (2021). Puti effektivnogo ispolzovaniya nalogovых lgot dlya podderjki predprinimateley. Ekonomika i innovatsionnye texnologii, (4), 355–362. izvlecheno ot https://inlibrary.uz/index.php/economics_and_innovative/article/view/11954
2. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi- Toshkent: G'afur G'ulom nashriyot uyi 2020.- 640 b.